



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 79-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI..... 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES*Article / Original Paper***TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA MADANIY HAYOTGA TA'SIRI****Muxammadiyev Akmal G'aniyevich**

Katta ilmiy xodim, PhD

O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi, Tarix instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola paleolit davrida tosh xomashyosi manbalaridan foydalanish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada xomasho manbalari, xomashyo tanlovi, ishlab chiqarishning texnologik zanjiri va mobillik xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, hududlarni o'zlashtirish, mavsumiylik, xomashyoni tejash va uni transportirovkasi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, paleolit, tosh xomashyosi, chaqmoqtosh, mobillik.

SOCIO-ECONOMIC AND CULTURAL IMPACT OF THE USE OF STONE RAW MATERIALS**Mukhammadiev Akmal**

Senior Research Fellow, PhD,

Institute of History, Academy of Sciences of Uzbekistan

Annotation. The article discusses the use of stone raw materials in the Paleolithic era. It analyzes the sources of raw materials, their selection, the production process, and the characteristics of mobility. It also considers issues of land development, seasonality, raw material economy, and transportation.

Keywords: Uzbekistan, Paleolithic, stone raw materials, flint raw materials, mobility.

KIRISH. O'zbekistonda paleolit davri yodgorliklarini tizimli ravishda o'rganish deyarli bir asrdan beri davom etmoqda. Amalga oshirilgan tadqiqotlar yodgorliklarning hududiy va davriy taqsimotida keskin farq mavjudligini ko'rsatmoqda. Respublikada nisbatan o'rta paleolit davri yodgorliklari ko'plab topib o'rganilgan bo'lib, ular asosan tosh xomashyosi manbalariga boy hududlar atrofida to'plangan. O'rta paleolit davri yodgorliklari joylashuvidagi ushbu xususiyat gominidlar hayotida tosh xomashyosiga bo'lgan ehtiyoj boshqa ehtiyojlar kabi muhim ahamiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Shu sababli, paleolit davrida xomashyo va undan foydalanishni o'rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqot metodlari hamda yondashuvlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar muhim sanaladi.

Tosh davrida xomashyo va undan foydalanish masalasi paleolitshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda xomashyo va undan foydalanish muammosini yoritish orqali qadimgi jamoalar tomonidan ekologik mintaqalarning o'zlashtirilishi, mobillik, xomashyo transportirovkasi, ijtimoiy va madaniy aloqalar, ijtimoiy-madaniy mansublik, xomashyoning texnika-tipologiyaga ta'siri masalalari asosli tarzda tahlil qilinmoqda. Jahon paleolitshunosligida olib borilgan tadqiqot ishlari

natijasida xomashyodan foydalanish strategiyasi hududiy, davriy va alohida ijtimoiy-madaniy guruhlar doirasida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Xomashyodan foydalanish strategiyasi manzilgohlarning shakllanishi va joylashuvi, tipi, ulardagi hayot davomiyligiga ham ta'sir ko'rsatgan. Xomashyo manbalaridan foydalanish ko'p hollarda terib-termachilik va ovchilik kabi boshqa turdagi kundalik xo'jalik mashg'ulotlar bilan bog'liq holda mavsumiy tarzda olib borilgan.

Jamoalar kundalik turmush tarzidagi oziq-ovqat va xomashyo manbalarini o'zlashtirish bilan bog'liq jarayonlar aholining bevosita hududlararo ijtimoiy munosabatlari hamda mobilligi sharoitida amalga oshirilgan. Shu tufayli, xomashyodan foydalanish hamda uning transportirovkasini o'rganish orqali paleolit davri jamoalari ijtimoiy munosabatlari va mobilligi haqida ham ma'lumotlar qo'lga kiritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda tosh davrini o'rganishda xomashyo bilan bog'liq tadqiqotlar ilmiy yondashuvlarning asosini tashkil etmoqda. Bu masalalar Yevropa paleolitshunoslik maktablarida keng yoritilgan. Masalan, ushbu qarashlarning toshga ishlov berish texnikasi tushunchalari bilan bog'liq eng asosiy masalalari J.C. Boyoda, J. Genest, J.D. Meignen asarlarida yoritiladi [4, P. 43–80; 9, P. 441–518; 10, P. 203–213; 11.]. “Chains opératoires” – tushunchasi toshga ishlov berishning texnologik jarayonlarini bosqichma-bosqich qayta tiklash uchun asosiy tahlil usullaridir. Bu yondashuv O'zbekistonda bevosita amaliy tadqiqotlarda keng qo'llanilmasa-da, texnologik bosqichlarni o'rganishda muhim boshlang'ich nuqtasini tashkil etadi. Mobillik, tabiiy zahiralarning taqsimoti, hududiy o'zgaruvchanlik, mavsumiylik, qarorgohlar hamda xomashyo transportirovkasi masalalarini o'rganishda R.L. Kelly, L. Feblot-Augustins, D. Sealy kabi tadqiqotchilar ishlari asosiy nazariy yondashuvlarni beradi [13, P. 277–306; 14, P. 43–66; 8, P. 211–265; 18, P. 569–595.]. A.P. Hovers xomashyo asosida amalga oshirilgan ijtimoiy-madaniy va o'zaro ayirboshlash muloqoti modelini yoritadi [12, P. 123–152.]. R. Rensink, J. Kolen, F. Spieksma xomashyo manbalarini tarqalishini tahlil qilish usullarini ko'rsatadi [16, P. 141–159.]. S. Duke, C. Steele va P.J. Brantinghamning GIS texnologiyalariga asoslangan tadqiqotlari esa, hududiy xususiyatlarni vizualizatsiya qilish, xomashyo transportirovkasida vaqt va kuchni tejash borasida ma'lumot beradi [7, P. 1–12; 6, P. 487–509.]. Ushbu ilmiy adabiyotlardagi yondashuvlarni O'zbekistonda amalga oshiriladigan tadqiqotlarga joriy etish ijtimoiy tarix masalalarini aniqroq yoritishga yordam beradi.

Muhokama Ibtidoiy jamoalar foydalangan tosh xomashyosi manbalari geologik holatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Birinchi turda xomashyo manbalari tog' tizmalari yonbag'rlarida yotqiziq holida uchraydi. Bu tog' jinslari vulkanogen yoki cho'kma holida, turli geologik davrlarda shakllangan. Tektonik o'zgarishlar natijasida ko'tarilgan yoki boshqa geologik jarayonlar ta'sirida ularning yer yuzasida ochiq manbalari shakllangan. Ular tosh xomashyosi manbalarining birlamchi manbalari hisoblanadi. Ikkinchi holatda tosh xomashyosi manbalari qayroqtosh holida daryo uzanlari, allyuvial yotqiziqlarda uchraydi. Bu kabi xomashyo manbalari ikkilamchi tosh xomashyosi manbalari hisoblanadi.

O'zbekistonda paleolit davrining turli bosqichlarida va turli hududlarida tosh xomashyosining mazkur har ikkala turidan ham foydalanish holati ko'zatiladi. Ibtidoiy jamoalar birinchi navbatda asosan chaqmoqtosh va turli darajada chaqmoqlashgan xomashyo turlaridan keng foydalangan bo'lib, o'rta paleolit davri yodgorliklari asosan bevosita xomashyo manbalariga boy hududlarda joylashgan. O'zbekistonda chaqmoqtosh va chaqmoqlashgan

jinslarning yotqiziq holidagi yirik zaxiralari asosan Toshkent va Navoiy viloyati hududlarida uchraydi. Har ikkala hududda mavjud manbalar o'rta paleolit davridan boshlab faol o'zlashtirilgan. Lekin, manzilgohlarning tosh xomashyosi manbalari bilan bog'liq holda joylashishi ayniqsa Toshkent vohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Vohada ko'plab o'rta paleolit davri yodgorliklari aniqlangan.

Toshkent vohasidagi chaqmoqtosh va chaqmoqlashgan tog' jinsi manbalari Ohangaron daryosi va uning Qizilolma, Jarsoy hamda G'ishtsoy kabi irmoqlari havzalarida ko'zatiladi. Ayniqsa, shishasimon kulrang va to'q kulrang, jigarrang tusli xalsedon-opal qotishmali chaqmoqtosh keng tarqalgan. Shuningdek, daryo uzani allyuvial yotqiziqlarida qayroqtosh holidagi yashma, slanes, kvarsit, alevrolit, qumtosh kabi ishlov berishga qulay tosh xomashyosi zaxiralari mavjud. Ohangaron vohasining foydalanish uchun qo'lay bo'lgan tog' jinslariga boyligi Kulbuloq yodgorligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hududning xomashyo manbalariga boyligi ko'plab manzilgoh, manzilgoh-ustaxona va ustaxona ko'rinishidagi yodgorliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Navoiy viloyatidagi Nurota tizmasining Qorator tog' yonbag'rilarida ham qadimdan ochiq holdagi chaqmoqtosh manbalari shakllangan. Bu yerda Ijond, Vaush va Uchtut kabi chaqmoqtoshga ishlov berish ustaxonalari mavjud. Ushbu manbalarda Ohangaron vohasidan farqli ravishda faqat chaqmoqtosh yotqiziqlari uchraydi.

Paleolit davrida daryo uzanlari allyuvial yotqiziqlarida mavjud qayroqtosh holidagi tog' jinslaridan ham foydalanilgan. Bu holat ko'proq o'rta Zarafshon vohasi hamda janubiy O'zbekiston hududidagi yodgorliklarga xos. Jumladan, Zarafshon vohasi o'rta paleolit davri Omonqo'ton, Ko'tirbuloq va Zirabuloq kabi yodgorliklarida xomashyo asosini qayroqtosh ko'rinishidagi turli chaqmoqlashgan tog' jinslari tashkil etgan bo'lsa, janubiy mintaqada joylashgan Teshiktoshda qayroqtosh holidagi jinslardan tashqari yotqiziq holidagi chaqmoqlashgan ohaktoshdan ham foydalanilgan.

O'zbekiston hududida xomashyo manbalari mavjud mintaqalar alohida ajralib turadi. Paleolit davrida yuqorida ko'rsatib o'tilgan tabiiy-geografik hududlarda ibtidoiy jamoalarning ekologik muhitga moslashuvva tabiiy zaxiralardan foydalanishi keskin farq qilgan. Ushbu farqlanish tog' va tog'oldi hududlariga xos xo'jalik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Ohangaron vohasi va Qorator tog' yonbag'rlaridagi toshga ishlov berish ustaxonalari va manzilgoh-ustaxonalari ibtidoiy jamoalarning alohida xo'jalik shaklini namoyon qilgan. Bevosita xomashyo manbalariga yaqin joylashgan yodgorliklar ikkinchi tomondan gominidlar turmush-tarzidagi ekologik muhitga moslashuvchanlik holatlarini ham ifodalaydi. Bunda xomashyo omili asosiy ahamiyat kasb etgan hamda xomashyo manbalaridan foydalanish imkonining mavjudligi o'ta muhim hisoblangan. Ohangaron vohasidan farqli ravishda Qorator tog' yonbag'ri hududlarida qadimgi jamoalar yashash manzilgohlari aniqlanmagan. Bu hududlardagi ibtidoiy jamoalar faoliyati izlari asosan toshga ishlov berish ustaxonalari bilan bog'liq. Shu tufayli mazkur hududda qadimgi jamoalarning ekologik muhitga moslashishi va alohida xo'jalik shakliga ixtisoslashishi Ohangaron vohasidan biroz farq qilgan deb taxmin qilish mumkin. Hududda faqat toshga ishlov berish ustaxonalari shakllangan bo'lib, jamoa manzilgohlari ulardan alohida joylashgan bo'lishi mumkin.

Tosh xomashyosi manbalaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta'siri xomashyo tanlovida yaqqol ko'rinadi. Albatta manbalardan foydalanish birinchi navbatda uni o'zlashtirish imkoni mavjudligi yoki cheklanganligi bilan bog'liq. Ya'ni, tabiiy o'zgarishlar

natijasida ulardan foydalanish imkoni vujudga kelgan yoki tusiqlar paydo bo'lgan. Lekin xomashyo tanloviga bir qator boshqa sabab va omillarham ta'sir ko'rsatgan. Sifat jihatidan o'xshash ko'plab xomashyo manbalaridan ma'lum turdagi, bir xil chaqmoqlanish xususiyatiga ega bo'lgan xomashyoni ongli ravishda tanlash hamda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish xomashyo tanlovini bildiradi. Bu mahalliy xomashyo manbalari xilma-xilligi sharoitida ma'lum bir xomashyo turini saralab olishdir. Xomashyoni ongli ravishda tanlash va cheklangan mahalliy xomashyodan foydalanish orasida aniq chegarani belgilash har doim ham amalga oshmasligi mumkin. Biz tanlovni faqat ma'lum bir hududda madaniy hamda davriy jihatdan bir xil bo'lgan industriyalarning turli xil manbalardan foydalanishida yoki bitta geologik manba chegarasida yaqqol xomashyo tanlovi amalga oshirilganda taxmin qilishimiz mumkin.

Qadimgi ustalar tanloviga xomashyoning ishlov berishga qulayligi bilan bog'liq sifatlar sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tog' jinslarining sifatlari ko'proq birikmalar va yotqiziqslarning qayta kristallashuvi darajasi bilan bog'liq ravishda o'zgarib borgan. Chuqur qayta kristallashuv holatida birikmalarining butun tarkibi bir xil xususiyatga ega bo'lgan. Zamonaviy tajriba-sinov tahlillarida chaqmoqtosh, obsidian va boshqa xomashyo turlarining shu kabi sifatlari haqida ancha asosli xulosalar qo'lga kiritilgan. "Murtlik", "qayishuvchanlik", "egiluvchanlik" va boshqa atamalar bilan ataluvchi sifatlar qadimda tosh qurollar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Chaqmoqlanish imkoniyatini baholashda tosh jinslarini sinovdan o'tkazish metodi alohida ahamiyatga ega. Ular ma'lum bir turdagi xomashyodan plastina, shu jumladan, muntazam bir tekis plastinalarni olish imkonini beradimi yoki faqat uchindilar olishga moslashgan chaqmoqlash texnikasi uchun yaraydimi degan masalaga aniqlik kiritadi. Ma'lumki yirik plastinalarni turli xil texnik usullar bilan olish mumkin bo'lib, lekin hamma turdagi xomashyo ham bunga imkon bermagan. Ko'plab chaqmoqtosh manbalari faqat bir turdagi qurollar tayyorlash imkonini berishi mumkin. Turli texnik usullar bilan yirik plastinalar olish imkonini bergan xomashyo turlarini esa har tomonlama texnologik jihatdan qulay xomashyo sifatida baholash mumkin.

O'rta paleolit davri yodgorliklari kolleksiyalari asosini faqat mahalliy xomashyodan tayyorlangan buyumlar tashkil etadi. Yodgorliklarda uzoq masofadan keltirilgan xomashyodan tayyorlangan buyumlar mavjudligi aniq dalillar bilan tasdiqlangan holat qayd etilmagan. Xomashyo turlari o'rtasidagi farq ham mahalliy xilma-xillikka asoslangan. Eng ko'p xilma-xil xomashyo manbaidan foydalanilgan holat Kulbuloqda qayd etilgan bo'lib, yodgorlikindustriyasi mahalliy xomashyo zaxiralari xilma-xilligi sharoitida rivojlangan.

Mahalliy industriyalarning xomashyo tanlovi sabablarini turlicha izohlash mumkin. Ba'zi holatlarda uzoq yillik tajriba sabab biror bir turdagi xomashyodan foydalanish an'anaga aylanadi va tanlov aynan shu asosida amalga oshiriladi. Bu ma'lum bir manbadagi xomashyodan uzoq vaqt foydalanishda va toshga ishlov berish texnikasidagi ana'anaviylikda ham yaqqol ko'rinadi. Ikkinchidan tanlash imkoni bo'lgani holda mahalliy xomashyo turlari ichidan faqat bir turdagi xomashyoning tanlanishi va undan foydalanishdir. Bu ayniqsa xomashyo manbalarining ommaviy yuzaga chiqishi va foydalanish imkoni mavjudligi sharoitida industriyaning bitta turdagi xomashyo asosida rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Kamdan kam holatlarda xomashyo tanlovi o'ziga xos madaniy yoki xronologik mansublikni belgilovchi asosiy ko'rsatkich sifatida ajralib chiqadi. Xomashyo tanlovi madaniy o'ziga xoslikni shakllanishiga sabab bo'lgan yodgorliklardan biri Obi-Rahmat yodgorligidir. Obi-

Rahmat yodgorligida mahalliy chaqmoqlashgan ohaktoshdan keng foydalanilgan. Mazkur xomashyo turining tabiiy xususiyatlari prizmatik holdagi nukleuslardan, uzun yon qirralari parallel plastinalar olish uchun qulay bo'lib, manzilgohda uzoq davr mobaynida ana'naviy tarzda davom etgan toshga ishlov berish texnikasi shakllanishini ta'minlagan. Manzilgohning ma'lum bir madaniy qatlamlarida xalsedondan ham foydalanilgan. Bu holat xalsedon manbasidan foydalanish imkonini ma'lum muddat mavjudligi bilan izohlangan [15; C. 116–121.]. Lekin boshqa xomashyo turidan foydalanish ana'naviy tarzda foydalanilib kelingan chaqmoqlashgan ohaktoshga bo'lgan talabni kamaytirmagan.

Tanlov bilan bog'liq holatni biz yana Kulbuloq yodgorligida ham ko'rishimiz mumkin. Manzilgohda chaqmoqtoshdan tashqari boshqa xomashyo turlaridan ham foydalanilgan bo'lsada, chaqmoqtoshdan yasalgan buyumlar yodgorlik kolleksiyasining asosini tashkil etgan. Chaqmoqtosh o'zining nisbatan sifatlilik xususiyatlari bilan barcha chaqmoqlash texnikasi usullarini amalga oshirish imkonini bergan. Uning izotropik xususiyatlari boshqa xomashyo turlarini keyingi o'rinlarga surib quygan hamda industriya asosini tashkil etgan. Chaqmoqtosh mineral zaxiralarni o'zlashtirishdagi ahamiyati jihatidan birinchi o'rinda turib, boshqa xomashyo turlari mavjud an'anaga ta'sir ko'rsata olmagan.

Natijalar. Ibtidoiy jamoalar turmush-tarzi, ekologik mintaqalarni o'zlashtirish hamda atrof muhitga moslashish bilan bog'liq holda xomashyo manbalarini o'zlashtirish va uni qo'lga kiritishning bir qator ko'rinishlari mavjud. Xomashyo manbalarining mavjudligi ibtidoiy jamoa manzilgohlarini to'g'ridan-to'g'ri hududda joylashuviga sabab bo'lgan. Manzilgohlarni xomashyo manbalari mavjud hududlarga bog'liq holda joylashuvi o'rta paleolit davridagidek kuchli namoyon bo'lmagan. Manbalarining mavjud emasligi esa ekologik mintaqani o'zlashtirish va unga moslashishning ancha murakkab tizimlarini tashkil etishga turtki bergan. Ikkinchi holatda jamoalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqib xomashyodan foydalanishning turli xil oraliq strategiyalarini qo'llashgan.

Ular ko'ra tosh xomashyosini qo'lga kiritish termachilik va ovchilik kabi kundalik yumushlar bilan birga olib borilgan yoki ma'lum bir manba maqsadli tarzda, tashkiliy holda o'zlashtirilgan. Tadqiqotlarga ko'ra xomashyo tasodifiy holatda, boshqa kundalik va xo'jalik yumushlarni bajarish jarayonida to'planishi mumkin edi [6; P. 487–509.]. Xomashyo manbalariga tasodifiy tashrif buyurish va maqsadli ravishda uni o'zlashtirish holatlari o'rtasida keskin farq bo'lmagan. Qurollar tayyorlash uchun xomashyo to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ayirboshlash yo'li bilan olingan. "Bevosita o'zlashtirish" holatida manbalarini o'zlashtirish maqsadida tashkil etilgan ma'lum guruh faoliyati tushuniladi. "Qo'shimcha" o'zlashtirish tushunchasi esa ayirboshlash, hamda boshqa kundalik va xo'jalik mashg'ulotlarni bajarish jarayonida xomashyoni qo'lga kiritish holatlarini izohlaydi [7; P. 1–12.].

Arxeologiya fanining boshqa sohalarida xomashyoni yetkazib berish muammosi atama va tushunchalari deyarli ishlab chiqilmagan. Xomashyo strategiyasi keng ma'noda kundalik hayot va xo'jalik mashg'ulotlari hamda ularning faoliyati uchun zarur bo'lgan oddiy va qayta ishlanmagan tabiiy xomashyoni o'zlashtirish va undan oqilona foydalanish usullaridir. Tosh xomashyo strategiyasi-murakkab xatti-harakatlarning tarkibiy qismi bo'lib, paleoiqtisodning qurol ishlab chiqarish asoslarini yaratishga yo'naltirilgan [11; P. 43–80; 4, P. 43–80.]. Tosh davri xomashyo strategiyasi boshqa davr iqtisodiyotida ishlab chiqish jarayonini xomashyo zaxirasi bilan ta'minlash tizimidan keskin farq qilgan. Tosh davrida ishlab chiqarish jarayonini xomashyo bilan ta'minlash usullari turli-tuman va murakkab bo'lgan. Ibtidoiy jamoalarda

xomashyo qayta ishlanmagan yoki ma'lum talab darajasida qayta ishlangan tarzda yetkazib berilishi mumkin edi. Xomashyo strategiyasi yashab qolish strategiyasining tarkibiy qismi bo'lib, ko'p hollarda landshaft ekologik muhitning zaxira sig'imini muhim ko'rsatkichi, ya'ni hayot ta'minotini ustuvor omili bo'lgan hamda hududlarni o'zlashtirish (ayniqsa o'rta paleolit davrida) imkoni mavjudligini belgilab bergan. Albatta yuqorida aytib o'tilganidek, birinchi navbatda barcha turdagi xomashyo zaxiralari mavjud hududlar o'zlashtirilgan.

Xomashyodan foydalanishning turli xil oraliq strategiyalarini qo'llash gominidlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga keskin ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi jamoalar ijtimoiy tizimi va tuzilmalari, uning ma'lum bir vaqt va omillar natijasidagi o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlarni o'rganish ilmiy muammolar yechimida katta ahamiyat kasb etadi. Insonlarning mobilligi masalasi turli davrlarda ijtimoiy tuzilmalar o'zgarishi va jamoalarning moslashish, yashab qolishga o'rinish, chegaralar va jamoaviy o'ziga xoslik tushunchasi, boshqa jamoalar bilan munosabat va aloqa jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan.

Tosh xomashyosini qo'lga kiritish ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Bu kabi tadbirlardan biri uzaro ayirboshlash bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar shakllanishidagi omillardan biri edi. Yuzaga kelgan munosabatlar xomashyo transportirovkasiga asoslangan. Bunda yuqori qiymat va iste'mol talabiga ega bo'lgan narsa-buyumlar oddiy texnologik va tashkiliy usul-vositalarga tayangan holda yetkazib berilgan. Ibtidoiy jamoalarning doimiy yashash manzilgohlaridan alohida joylashgan manbadan tosh xomashyosini tizimli ravishda yetkazib berishga asoslangan xomashyo strategiyasi o'rta paleolit davrida shakllanib, so'nggi paleolit davrida ancha rivojlangan.

Etnografik tadqiqotlar hozirgi ovchilik-termachilik jamoalari uchun juda yuqori mobillik xususiyati xosligini ko'rsatadi [14; P. 43–66.]. Faol harakat masofasi 10 km. radius bilan chegaralangan [3; P. 229–244.]. L. Binford ovchi-termachi jamoalarni mobillikning ikkita alohida turiga asoslangan kuchmanchi va o'troq guruhlariga ajratishni taklif etadi. Ulardagi mobillik aylanma va to'g'ri harakat yo'nalishiga ega edi. Ushbu holda mobillik ko'p sonli vaqtinchalik manzilgohlarga asos solinishiga olib kelgan. Asosiy qarorgoh mahalliy xom-ashyo manbalari yaqinida joylashgan bo'lib, mazkur holatda xom-ashyo manzilgohga maxsus keltirilmagan, balki kundalik mashg'ulotlar jarayonida olib kelingan. Mazkur mobillik xom-ashyo manbalari mavjudligi holati bilan bog'liq. To'g'ri harakat mobilligi doimiy manzilgoh mavjudligini talab etadi, hamda xom-ashyo ko'p miqdorda maxsus manbadan transportirovka qilinadi. Ko'p hollarda jamoa o'z manzilgohini mahalliy sifatsiz xom-ashyo manbai yaqinida joylashtiradi. Bir manba zaxirasi tugasa jamoa ikkinchi zaxiraga kuchib o'tadi. Qadimgi jamoalar mavsumiy holda har ikkala mobillik holatini qo'llagan bo'lishi mumkin [12; P. 123–152.]. L. Binford 1960 yilda mobillikda davriy va hududiy farq bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan. O'rta paleolit davrida jamoalar ko'proq aylana mobillik holatida yashab, vaqtinchalik manzilgohlarda yashashgan. O'rta paleolit davri oxiriga kelib ularning yashash tarzida o'troqlik holati kuchaya boshlaydi. Uzoq muddatli manzilgohlarni u hozirgi ko'rinishdagi insonni paydo bo'lishi bilan bog'laydi [2; P. 280–283.]. Jamoalar mobilligi ikkinchi tomondan yashash uchun zarur bo'lgan zaxiralarning hududlarda tarqalishi va taqsimotiga bog'liq edi [3; P. 400–432.; 13, P. 277–306; 18, P. 569–595]. Shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning ta'siri mavjudligi ham ta'kidlangan.

R. Uollan ovchilik-termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar mobilligini to'rtta turga ajratadi: 1-kuchish bilan bog'liq mobillik, 2-ta'minot bilan bog'liq mobillik, 3-ijtimoiy mobillik

(qarindosh-urug'larni ko'rish va boshqa) hamda 4-axborot mobilligi (muqaddas joylarni ziyorat qilish va b.). Shu bilan birga mazkur taqsimotda aniq chegara bo'lmasligi ham qayd etilgan.

K. Gembl ovchilik-termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar ijtimoiy munosabatlarining uch asosiy darajasini ko'rsatib o'tgan. Qarindoshlik munosabatlari 5 kishigacha bo'lgan guruhda (oila), biroz samarador munosabatlar 20–25 kishidan iborat guruhda, kelib chiqishi bir yoki bitta makonda yashashi bilan bog'liq, hamda kengaytirilgan munosabatlar 100–400 kishigacha, qabila birlashuviga o'xshash, ko'proq madaniy umumiylik va xotiralarga asoslangan. Ushbu model mobillikni uch xil radiusdagi masofa bilan belgilaydi: 200 km. dan kam masofada (tosh qurollar uchun xom-ashyo almashinuvi), 200–300 km. (ijtimoiy munosabatlar va uzaro ta'sir), hamda 300 km. radiusdan uzoq (rasmiy va diniy aloqalar almashinuvi) [5, P. 73–113.].

Qadimgi insonlarning paleolit davridagi mobilligi haqidagi ma'lumotlarni xom-ashyodan foydalanish jarayonida, birinchi navbatda manbadan manzilgohga keltirilgan xom-ashyo turlarini o'rganish orqali qo'lga kiritish mumkin. Xom-ashyo tiriklik ta'minotini belgilovchi sohalarga kirgan, uni qo'lga kiritish uchun jamoalar tomonidan bosib o'tilgan masofa, jamoaning mavjudligi uchun zaruriy bo'lgan zaxiralarni o'zlashtirish hududlari bilan bog'langan [17, P. 17–34.]. Mazkur holatda manzilgoh va xom ashyo manbai o'rtasidagi aloqa mobillik xususiyatlarini aniqlashdagi manba bo'lib xizmat qiladi [16, P. 141–159.].

Yaqin vaqtlargacha neandertallar mobilligi sapienslarga nisbatan ancha past ko'rsatgichga ega deb qaralgan [9, P. 441–518; 10, P. 205–207; 19, P. 75–85.]. O'rta paleolit davri yodgorliklari industriyasida asosiy o'rin tutgan mahalliy zaxiralarni o'zlashtirish doirasi (5 km. gacha) neandertallar mobilligiga xos xususiyat sifatida qabul qilinib, neandertallar cheklangan harakatchanlik modeliga ega ekanligi ta'kidlangan.

Lekin, o'rta va so'nggi paleolit davrida xom-ashyodan foydalanishdagi farqlar asosan sifat ko'rsatkichida emas, balki miqdor ko'rsatkichida ko'zga tashlanadi. Yevropadagi yodgorliklar uchun esa xom-ashyoning uzoq hududdan keltirish holati aniqlangan [8; P. 211–265; 17, P. 17–34.]. Uzoq hududlarda joylashgan manbalardan xomashyo kam miqdorda transportirovka qilingan bo'lsada, ular izchil tarzda amalga oshirilgan. Shu sababli nafaqat sapienslar, balki neandertallar jamoasi ham rivojlangan ijtimoiy munosabatlar tizimining ma'lum bir qismini tashkil etgan deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Mobillikning mahalliy hududiy chegarasi atrof-muhitda oziq-ovqat zaxiralarining boyligi va keng tarqalganligi bilan belgilanib, bunda zaxiralarni o'zlashtirish 1400–5400 kv.km.gacha bo'lgan hududdan iborat bo'lishi mumkin [20; P. 209–227.].

Xomashyoning uzoq hududlarga transportirovkasi ba'zi bir tadqiqotchilarga ko'ra, jamoalarning bevosita hududlarni o'zlashtirish va ijtimoiy aloqalarning mavjudligini ko'rsatib beruvchi xususiyatdir [1; P. 363–393.]. Oxirgi vaqtlarda neandertallarning mobilligi va "rejalashtirilgan xatti-harakati" borasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar [17; P. 17–34.], hamda ko'chish masofasi mazkur xususiyat neandertal jamoalar uchun ham xos bo'lgan degan taxminni ilgari surish mumkinligini ko'rsatmoqda.

O'rta paleolit davri jamoalari toshga ishlov berish texnologiyalari, xomashyodan foydalanish strategiyasi, ekologik mintaqalarni o'zlashtirish va madaniy an'analariga ko'ra bir-biridan farqli va o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan. Umuman o'rta paleolit davri uchun tosh xomashyosini keltirishni bir nechta usuli mavjud bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Ular

xomashyo ta'minotining o'ta moslashuvchan tizimini ifodalaydi. Aftidan, xomashyo keltirishning talab qilingan va samarali usuli ko'proq maxsus tashkil etilgan guruhlar tomonidan uzoqroq masofadan nukleuslar, plastinalar ko'rinishidagi yarimtayyor mahsulot yoki paykon tig'lari va ularning tanovarlarini keltirish bo'lgan.

Ilmiy adabiyotlarda chaqmoqtoshni qayta ishlash ustaxonalari mahsulotlarini taqsimlash jarayoni borasida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil fikr shakllangan. Birinchi holatda mahsulot bosqichma-bosqich quldan-qulga berilgan bo'lib, uzaro ayirboshlash yo'li bilan tarqalgan bo'lsa, ikkinchi holatda jamoadosh ustalar guruhi manbadan to'g'ridan-to'g'ri mahsulotlarni bevosita o'zlari olib kelishgan. Har ikkala holat bir-birini uzaro to'ldirib boradi. To'g'ridan-to'g'ri yetkazish jamoalarning yuqori mobilligi bilan bog'liq bo'lgan. Uzaro ayirboshlash buyumlarni ancha uzoq masofalarga yoyilishini ta'minlagan.

Chaqmoqtoshni xomashyo, buyum yoki yarimtayyor mahsulot sifatida ma'lum bir hududga yetkazishni tashkillashtirish xomashyoga boy mintaqalarda ixtisoslashgan ustaxonalarning shakllanishiga olib kelgan. Ustaxonalar bir vaqtda uzoq va yaqin mintaqalarga xizmat qilishi mumkin edi. Xomashyo manbalarida paydo bo'lgan ustaxonalar turli ko'rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin edi. Chaqmoqtosh manbalaridan xomashyo keltirish jarayonini tashkillashtirishdagi qiyinchiliklar va imkon qadar ko'proq miqdorda mahsulot olib ketish istagi har safar ustaxonaning o'zida keng va faol doirada xomashyoni qayta ishlashni talab qilgan. Xomashyo manbalarini tizimli ravishda o'zlashtirish natijada ustaxonalar hududida ko'plab miqdorda ishlab chiqarish qoldiqlari yig'ilib qolgan.

Uzoq masofada joylashgan manzilgohlarga yetkazilgan chaqmoqtosh har doim xomashyodan foydalanish strategiyasining eng samarali usulida, ya'ni tuliq qayta ishlangan. Bunda nukleuslarning tuliq chaqmoqlash hamda qurollarning sezilarli tarzda kichrayishi qayd etiladi. Albatta xomashyo manbai va manzilgoh o'rtasidagi masofa transportirovka qilinayotgan tayyor mahsulot holatiga ta'sir ko'rsatgan. Mantiqiy jihatdan tayyor plastina va qurollar transportirovka qilinganligi to'g'ri bo'ladi. Lekin bugungi kunda perinukleuslar, qisman nukleus hamda plastinalarning transportirovkasi o'z isbotini topgan.

Xomashyo zaxiralaridan foydalanishning ikkinchi usuli bevosita ovchilik-termachilik bilan shug'ullanuvchi jamoalar iqtisodiy hududlarida joylashgan manbalarni o'zlashtirish bilan bog'liq edi. Xomashyodan foydalanishda ushbu strategiyaning tanlanishining asosiy omili manbaning bevosita boshqa hayot uchun zarur bo'lgan zaxiralar bilan bitta hududda joylashishi edi. Ma'lum bir chegaralangan hududda turli xildagi manbalar zaxirasining jamlanishi natijasida xo'jalik-turmush tarzining turli sohalariga oid moddiy ashyolar to'plami qoladi, tosh xomashyosini chaqmoqlash jarayonining to'liq bosqichlari namoyon bo'lib, jarayon xomashyodan foydalanish strategiyasining sifat turi emas miqdoriy turida amalga oshirilgan.

Ustaxonalar haqiqattan ham davriy va tipologik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Boshlang'ich bosqichdagi ustaxonalar uchta yo'nalishdagi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Ulardan nukleuslar uchun ixtisoslashgan ustaxonalar nisbatan asoslangan bo'lib, manbadan uzoq hududlarda joylashgan manzilgohlarga ko'p miqdorda transportirovka qilinadigan mahsulot turi bu perinukleuslar bo'lgan.

O'rta paleolit davrida xomashyo yetkazib berishni tashkillashtirishda yaqqol namoyon bo'lgan hududiy o'ziga xoslik bu ustaxonalarning mavjudligidir. Doimiy yashash hududlaridan olis masofalardagi ekologik mintaqalar o'zlashtirilganda kichik ustaxonalar shakllangan.

Ularda joriy ehtiyoj, ya'ni kunlik zaxira uchun bir necha nukleus va bir necha o'n dona plastinalar olingan. Bu kabi qisqa muddatli ustaxonalarining paydo bo'lishi yuqori mobillikka ega kichik ovchilik guruhlarining o'z iqtisodiy hududidagi yurishlari bilan bog'lash mumkin. Mazkur ustaxonalar o'zida ma'lum hududiy doiradagi, planigrafik jihatdan kam farqlanuvchi kam sonli topilmalar to'plamini namoyon etadi. O'rta paleolit davrida hududlararo butun tarkibi bilan kuchib yuruvchi neandertallar jamoalarining qarorgoh tipidagi mobilligidan farqli ravishda, bu kabi manzilgohlar ovchilik-termachilik bilan shug'ullanuvchi zamonaviy tipdagi jamoalarining qarindosh-urug'lardan iborat maxsus jihozlangan kichik guruhlari edi. Chaqmoqtoshga boy hududlarda ov mavsumi sharoitida, o'z-o'zini ta'minlash tartibi ehtiyojni kamaytirib, katta miqdordagi tosh xomashyosi zaxirasini tayyorlash va uni o'zi bilan olib yurish talabini qo'ymagan. Bu kabi ustaxonalarni toshga ishlov beruvchi vaqtinchalik ustaxonalar deb atash to'g'riroq bo'ladi. Ular qadimgi odamlarning vaqtinchalik faoliyat turi haqida guvohlik berib, murakkab tuzilishli ustaxonalarining planigrafik jihatdan tayanch belgilarini ko'rsatib beradi.

Aytish mumkinki so'nggi paleolit davrida manzilgohdan alohida joylashgan manbalardan olinadigan xomashyodan foydalanish strategiyasining ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lgan. Ulardan birinchisi keng tarqalgan. Bu ichki ehtiyoj uchun mahalliy xomashyo manbalarini o'zlashtirishga qaratilgan strategiya bo'lib, ko'proq manzilgohga yaqin joylashgan manbalar o'zlashtirilgan. Ikkinchi turi ancha xilma-xil bo'lgan. Ular "safar xaltasi", "to'g'ridan-to'g'ri yayov holda yetkazish" hamda "pog'onali almashlash" strategiyalaridir.

Shu bilan birga xomashyoni yetkazib berishni tashkillashtirishni qandaydir umumiy strategiya doirasida yoritib berish imkoni yo'q. Ishlab chiqarish va ehtiyoj talabidan kelib chiqib turli xil strategiyalar qo'llanilgan bo'lishi mumkin. Ushbu holatda ham turli masofa bilan bog'liq holatlar ahamiyatga ega bo'lgan.

Xomashyo strategiyasi o'z taraqqiyoti jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. U o'rta paleolit davrida shakllangan "yuk xalta" ko'rinishida shaxsiy ehtiyoj uchun muljallangan xomashyodan foydalanish usulidan to savdo-ayirboshlash ko'rinishigacha taraqqiy etgan. Ushbu taraqqiyot yo'lini xronologik jihatdan aniq namoyon bo'lgan bir nechta bosqichlarga ajratish mumkin:

"Safar xaltasi" yoki tosh xomashyosidan shaxsiy qisqa muddatli ehtiyojdan kelib chiqib, butun jamoa yoki ovchi-termachi guruhlarining yuqori mobilligi sharoitida foydalanish strategiyasi. Bunda kam miqdordagi xomashyo zaxirasi va alohida ma'lum bir texnologik birlik holatidagi mahsulot o'zlashtirilgan. Ushbu strategiya o'rta va so'nggi paleolit davrlarida asosiy strategiya sifatida foydalanilgan.

"to'g'ridan-to'g'ri yayov yetkazish strategiyasi"- jamoadosh ustalar tomonidan yayov holda manbalarga to'g'ridan-to'g'ri tashrifni tashkil etish va tayyorlangan buyumlarni ba'zida uzoq masofalarga yetkazish strategiyasi. Asosan turli holdagi yarimtayyor mahsulotlar yetkazilgan. Jamoaning joriy va uzoq muddatli ehtiyoji qondirilgan.

"Pog'onali almashlash strategiyasi" – xomashyo jamoa ichida yoki jamoalararo pog'onali tarzda uzaro ayirboshlangan. Buyum bir necha yuzlab km. masofaga yetib borishi mumkin bo'lgan.

Yuqoridagi tahlil albatta, hududiy o'ziga xoslikka ega bo'lishi mumkin. Ularning har birining doirasida turli farqlilik jihatlari mavjud bo'lishi mumkin bo'lib, ular har bir jamoaning madaniy va xo'jalik moslashuvchanligini ifodalashi mumkin. Umuman xomashyo

strategiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi va inqirozining davriy xususiyatlarini taxmin qilish mumkin.

Xulosa. O'rta paleolit davrida hududda xo'jalikni xomashyo bilan ta'minlash va ekologik mintaqalarni o'zlashtirishning ancha moslashuvchang shakli paydo bo'ladi. Umuman xomashyodan foydalanish strategiyasidagi hududiy farqlarga qaramasdan mahalliy xomashyo manbalaridan industriya asosini tashkil etgan.

O'rta paleolit davri yodgorliklari industriyalari xomashyo xilma-xilligi o'sha davr jamoalari uchun foydalanish imkoni mavjud bo'lgan mahalliy manba turlariga tuliq mos keladi. O'rta paleolit davri yodgorliklarining asosiy qismi bevosita xomashyo manbalari mavjud hududlarda joylashgan. So'nggi paleolit davrida aholi joylashuvida xomashyo omilining ta'siri ancha kamaysada, xomashyo tanlovi bilan bog'liq yaqqol holatlar ham ko'zatilmaydi. Xomashyo tanlovidagi keskin farq faqat mezolit-neolit davri yodgorliklarida ko'zatiladi. Sifatli va xilma-xil mahalliy xomashyo manbalarining mavjudligi sharoitida tanlovga yondashuvdagi bu kabi keskin farqlilik so'nggi mezolit ilk neolit davri industriyalari uchun xos xususiyat hisoblanadi. Oldingi davrlarda xomashyo tanlovi hamda uning yagonalashuvi bu kabi darajada aniq namoyon bo'lmagan. Tadqiqotlar xomashyo manbalaridan foydalanishda tanlov holati mezolit neolit davrida o'zining eng yuqori chuqqisiga chiqqanini ko'rsatadi. Umuman O'zbekiston hududidagi yodgorliklarni boshqa mintaqalarda ko'zatilgani kabi xomashyodan foydalanish borasidagi tanlovini aniq bir sabab yoki omil, masalan faqat bir turdagi xomashyo manbaidan foydalanish imkonining mavjudligi bilan bog'lash qiyin. Tanlov madaniy me'yorlar bilan belgilangan bo'lishi ham mumkin. U yoki bu darajada namoyon bo'lgan ushbu holat ancha keng yoyilgan va deyarli tosh davrining barcha bosqichlarini qamrab oladi, ya'ni umumiy va tadrijiy hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki tosh davri industriyalari nafaqat texnologiya jihatdan tartiblangan yoki tizimlashtirilgan edi, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham tizimlashtirilgan edi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Bar-Yosef O. The Upper Paleolithic Revolution // Annual Review of Anthropology. – 2022. – Vol. 31. – Pp. 363–393.
2. Binford S. R. Late Middle Paleolithic adaptations and their possible consequences. // Biosciences. – 1970. – №20. – Pp. 280–283.
3. Binford R. L. Constructing frames of reference: An analytical method for archaeological theory building using ethnographic and environmental data sets. – Berkeley: University of California Press. 2001. – 554 p.
4. Boëda E., Géneste J. M., Meignen L. Identification de chaînes opératoires lithiques du Paléolithique ancien et moyen // Paléo 2. – 1990. – P. 43–80.
5. Boriç D., Cristiani E. Social Networks and Connectivity among the Palaeolithic and Mesolithic Foragers of the Balkans and Italy. // Southeast Europe before neolithisation. – Tübingen, 2016. – Pp. 73–113.
6. Brantingham P. J. A neutral model of stone raw material procurement // American Antiquity. – 2003. – Vol. 68. – Pp. 487–509.
7. Duke C. Steele J. Geology and lithic procurement in Upper Palaeolithic Europe: a weights-of-evidence based GIS model of lithic resource potential // Journal of Archaeological Science. – 2009. – Pp. 1–12.
8. Féblot-Augustins J. Mobility strategies in the Late Middle Paleolithic of central Europe and western Europe: elements of stability and variability. // Journal of Anthropological Archaeology. – 1993. – №12. – Pp. 211–265.

9. Géneste J. M. Les industries de la Grotte Vaufrey: Technologie du débitage, économie, et circulation de la matière première lithique / Grotte Vaufrey: Paléoenvironnement, Chronologie, Activités Humaines. Société Préhistorique Française. – Paris, 1988. – Pp. 441–518.
10. Géneste J. M. Développement des systèmes de production lithique au cours du paléolithique moyen en Aquitaine septentrionale // Paléolithique Moyen Récent et Paléolithique Supérieur Ancien en Europe Nemours: Mémoires du Musée de Préhistoire d'Île de France. – 1990. – №3. – Pp. 203–213.
11. Géneste J. M. Analyse lithique d'industries Moustériennes du Périgord: une approche technologique du comportement des groupes humains au Paléolithique moyen. These. Université de Bordeaux I. – Bordeaux, 1985. – 567 p.
12. Hovers E. Territorial behavior in the Middle Paleolithic of the Southern Levant. // N.J Conard, ed. Settlement Dynamics of the Middle Paleolithic and Middle Stone Age, Tubingen: Kerns Verlag. 2001. –Pp. 123–152.
13. Kelly R. L. Hunter–gatherer mobility strategies // Journal of Anthropological Research. 1983. Vol. 39. –Pp. 277–306.
14. Kelly R.L. Mobility/Sedentism: Concepts, Archaeological Measures, and Effects // Annual Review of Anthropology. Vol. 21. 1992. –Pp. 43–66.
15. 20. Кулик Н. А., Милютин К. И. Источники сырья каменной индустрии грота Оби-Рахмат // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – 2004. – № 1. – Т.10. – С. 116–121.
16. Rensink, E., Kolen, J., and Spieksma, A. 1991. Patterns of raw material distribution in the Upper Pleistocene of Northwestern and Central Europe. In: Montet-White A. and Holen, S. (eds.), Raw Material Economies among Prehistoric Hunter-Gatherers. University of Kansas Publications in Anthropology 19, Lawrence, KS, pp. 141–159.
17. Roebroeks W., Kolen J., Rensink E. Planning depth, anticipation, and the organization of Middle Palaeolithic technology. The “Archaic Natives” meet Eve’s descendants. // Helinium. 1988. № 28. –Pp. 17–34.
18. Sealy J. Diet, Mobility, and Settlement Pattern among Holocene Hunter–Gatherers in Southernmost Africa. // Current Anthropology. 2006. Vol. 47 (4). –Pp. 569–595.
19. Turq A. Raw material and technological studies of the Quina Mousterian in Perigord // The Middle Paleolithic: adaptation, behavior, and variability, University of Pennsylvania. 1992. –Pp. 75–85.
20. Walker C. S., Churchill S.E. Territory size in Canis Lupus: implications for Neanderthal mobility. // In: Carlson K. J. and Marchi D. (eds.). Reconstructing Mobility: Environmental, Behavioral, and Morphological Determinant. 2014. – Pp. 209–227.

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com